O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA’LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI

TOSHKENT DAVLAT IQTISODIYOT UNIVERSITETI

Qo‘lyozma huquqida

UDK 336.5

Tashpulatova Farangiz Jahongir qizi

TIJORAT BANKLARI PASSIVLARINING OPTIMAL TARKIBINI SHAKLLANTIRISH YO‘LLARI

70410501 – «Bank ishi va auditi» mutaxassisligi

Magistr akademik darajasini olish uchun yozilgan

DISSERTATSIYA

Ilmiy rahbar: i.f.n., prof. Z.A.Umarov

Toshkent-2025

TOSHKENT DAVLAT IQTISODIYOT UNIVERSITETI

"16" 04 2025 yil Toshkent sh.

"Bank hisobi va auditi" kafedrasi

Magistrlik dissertatsiya ishning dastlabki himoyasi bo'yicha komissiya majlisining 2025 yil "16" 04, 4 sonli bayonnomasidan

KO'CHIRMA

KUN TARTIBI

Eshitildi:
Toshkent Davlat Iqtisodiyot Universiteti „Bank ishi va audit" yönalishi BIA 1-23 "magistranti Toshpölatova Farangizning Tijorat banklari passivlarining optimal tarkibini shakllantirish yöllari" mavzusidagi Ilmiy - tadqiqot ishi

Qaror qilindi:
Toshkent Davlat Iqtisodiyot Universiteti „Bank ishi va audit" yönalishi BIA 1-23 "magistranti Toshpölatova F.F. ning „Tijorat banklari passivlarining optimal tarkibini shakllantirish yöllari" mavzusidagi Ilmiy - tadqiqot ishi himoyaga tavsiya etildi.

"Mazkur magistrlik dissertatsiya ishi himoyaga tavsiya etilsin"

Komissiya a'zolari:
1. Pardayeva Sh.A.
2. Rahimov A.M.
3. Xudaybergenov Z.Z.

Kafedra mudiri
i.f.n., prof. Umarov Z.A.
"16" 04 2025 y.

Toshkent moliya instituti Magistratura bo‘limi 70410501 – «Bank ishi va audit» mutaxassisligi, BIA-1 guruh magistranti Tashpulatova Farangiz Jahongir qizining “Tijorat banklari passivlarining optimal tarkibini shakllantirish yo‘llari” mavzusidagi dissertatsiya ishining

ANNOTATSIYASI

Tayanch so‘zlar: bank passivlari, tijorat banklari, raqamli bank xizmatlari, bank tizimi, bank mahsulotlari, mijozlar ehtiyoji, raqobatbardoshlik, moliyaviy texnologiyalar, masofaviy bank xizmatlari, bank strategiyasi, kreditlash tizimi, innovatsion xizmatlar, bank transformatsiyasi, moliyaviy savodxonlik.

Tadqiqot obyekti: Tadqiqotning obyekti bo‘lib O‘zbekiston Respublikasi tijorat banklarining moliyaviy faoliyati, xususan ularning passiv operatsiyalari, resurs bazasi va mablag‘larni jalb qilish mexanizmlari. Bank passivlarining tarkibi, ularning shakllanish manbalari, moliyaviy resurslarni boshqarish usullari, passivlar diversifikatsiyasi va optimallashtirish mexanizmlari. tadqiqotning predmetini tashkil etadi.

Ishning maqsadi: Tijorat banklari passivlarining tarkibini tahlil qilish asosida ularning optimal tuzilmasini shakllantirish yo‘llarini aniqlash, zamonaviy yondashuvlar orqali bank resurs bazasining barqarorligini va samaradorligini oshirish bo‘yicha takliflar ishlab chiqish.

Tadqiqot metodlari: Tadqiqot jarayonida guruhlashtirish, taqqoslash, tizimli yondashuv, qiyosiy taqqoslash, tahlil va sintez, mantiqiy, analitik, iqtisodiy tahlil va boshqa usullaridan foydalanilgan.

Olingan natijalar va ularning yangiligi: Bank passivlarini optimallashtirishda resurs diversifikatsiyasi va tarkibiy barqarorlikni baholash bo‘yicha muqobil yondashuv ishlab chiqildi.

Amaliy ahamiyati: Dissertatsiyaning amaliy ahamiyati shundan iboratki, tadqiqot ishida ishlab chiqilgan taklif va tavsiyalar O‘zbekistonda banklar tomonidan passivlarining optimal tarkibini shakllantirish amaliyotini yanada rivojlantirish bo‘yicha ilmiy konsepsiya, qonunlar va takliflarni ishlab chiqishda qo‘llanilishi mumkin.

Tatbiq etish darajasi va iqtisodiy samaradorligi: tadqiqot jarayonida ishlab chiqilgan xulosa va takliflar O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banki va tijorat banklari tomonidan bank sohasida tayyorlanayotgan kadrlarning o‘quv jarayonida foydalanishga tavsiya etiladi (malaka talab va o‘quv rejalar).

Qo‘llanish sohasi: O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banki va tijorat banklari, oliy o‘quv yurtlari.

ANNOTATION

Tashkent Institute of Finance Master's Department 70410501- "Banking and Auditing" specialty, BIA-1 group master Tashpulatova Farangiz Jahongir kizi"s dissertation work on "Ways to Form the Optimal Structure of Commercial Bank Liabilities"

Key words: Bank liabilities, commercial banks, digital banking services, banking system, banking products, customer needs, competitiveness, financial technologies, remote banking services, banking strategy, credit system, innovative services, bank transformation, financial literacy.

Object of research: The object of the research is the financial activity of commercial banks in the Republic of Uzbekistan, particularly their liability operations, resource base, and mechanisms for attracting funds.

The subject of the research includes the structure of bank liabilities, their sources of formation, methods of managing financial resources, diversification of liabilities, and mechanisms for their optimization..

The purpose of the study is To analyze the structure of commercial bank liabilities and identify ways to form their optimal composition, as well as to develop proposals to enhance the stability and efficiency of the bank's resource base through modern approaches.

Methods of research: The study employed methods such as classification, comparison, system approach, comparative analysis, synthesis, logical and analytical reasoning, economic analysis, and others.

The results obtained and their novelty: An alternative approach was developed for evaluating resource diversification and structural stability in the optimization of bank liabilities.

Practical significance: The practical significance of the dissertation lies in the fact that the proposals and recommendations developed in the study can be applied by banks in Uzbekistan to further improve the practice of forming the optimal structure of liabilities. The research findings may also be used in developing scientific concepts, legislation, and policy recommendations.

Level of implementation and economic efficiency: The conclusions and proposals developed in the course of the study are recommended for use by the Central Bank of the Republic of Uzbekistan and commercial banks in the training process of banking specialists, including qualification requirements and educational curricula.

Scope: The Central Bank of the Republic of Uzbekistan, commercial banks, and higher education institutions.

MUNDARIJA

	KIRISH.....	**3**
I BOB	**TIJORAT BANKLARI PASSIVLARINING OPTIMAL TARKIBINI SHAKLLANTIRISHNING NAZARIY ASOSLARI**.....	**8**
1.1.	Tijorat banklari passivlari va ularning tarkibi	**8**
1.2.	Tijorat banklari passivlarining uning faoliyatidagi ahamiyati.....	**16**
1.3.	O‘zbekiston Respublikasida tijorat banklari passiv operatsiyalarining huquqiy asoslar.....	**24**
	I bob bo‘yicha xulosa.....	**27**
II BOB	**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI TIJORAT BANKLARIDA PASSIV OPERATSIYALARNI AMALGA OSHIRISH TAHLILI**.....	**29**
2.1.	Passivlar tarkibini optimallashtirishning bank faoliyatiga ta’siri.....	**29**
2.2.	Bankning jalb qilingan depozit resurslaridan foydalanishning samaradorlik ko‘rsatkichlari tahlili	**39**
2.3.	“O‘zMilliybank” AJning iqtisodiy-moliyaviy ko‘rsatkichlar	**46**
	II bob bo’yicha xulosa.....	**50**
III BOB	**TIJORAT BANKLARI PASSIVLARI OPTIMAL TARKIBINI SHAKLLANTIRISHNING ISTIQBOLLARI**.....	**52**
3.1.	Tijorat banklari passivlarining optimal tarkibini shakllantirishda ilg‘or tajribalar tahlili.....	**52**
3.2.	Banklararo raqobat sharoitida respublikamiz tijorat banklari passivlari optimal tarkibini shakllantirish imkoniyatlari.....	**60**
	III bob bo’yicha xulosa.....	**66**
	XULOSA.....	**67**
	FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO’YXATI.....	**68**
	ILOVALAR.....	**74**

KIRISH

Magistrlik dissertatsiyasi mavzusining asoslanishi va uning dolzarbligi. Bozor iqtisodiyoti sharoitida tijorat banklari mamlakat moliya tizimining eng muhim va harakatchan bo‘g‘inlaridan biri hisoblanadi. Banklar orqali jamiyatdagi bo‘sh pul mablag‘lari to‘planib, iqtisodiyotning turli sohalariga yo‘naltiriladi. Ayniqsa, so‘nggi yillarda iqtisodiy o‘sishning ta’minlanishida banklarning resurs bazasini mustahkamlash, ularning moliyaviy barqarorligini oshirish va ishonchli faoliyat yuritishini ta’minlash ustuvor vazifalardan biriga aylandi.

Shu nuqtai nazardan olib qaralganda, tijorat banklarining passivlarini shakllantirish masalasi bugungi kunning eng dolzarb moliyaviy va iqtisodiy muammolaridan biridir. Passivlar — bu bank uchun moliyaviy resurslarning asosiy manbai bo‘lib, ularni samarali boshqarish va optimal tarkibda shakllantirish bankning foydaliligi, likvidligi va raqobatbardoshligiga bevosita ta’sir ko‘rsatadi.

O‘zbekistonda bank tizimining barqaror rivojlanish strategiyasiga muvofiq, tijorat banklari faoliyatini kengaytirish, ularning kapital bazasini kuchaytirish, yangi moliyaviy vositalarni joriy etish va zamonaviy boshqaruv uslublarini qo‘llash orqali passivlarni diversifikatsiya qilish zarurati ortib bormoqda. Ayniqsa, bank resurs bazasining haddan tashqari tashqi qarzlarga tayanib qolmasligi, aholi va yuridik shaxslar depozitlari salmog‘ini oshirish, kapital bozorida resurs jalb etish mexanizmlarini rivojlantirish — bugungi kundagi asosiy masalalardan biridir.

Hozirgi davrda banklar global iqtisodiy o‘zgarishlar, xalqaro moliya bozorlaridagi tebranishlar, inflyatsion bosimlar va pul-kredit siyosatidagi qat’iylik bilan to‘qnash kelmoqda. Bunday sharoitda passiv operatsiyalarni puxta rejalashtirish va ularning optimal tuzilmasini shakllantirish banklar uchun nafaqat moliyaviy barqarorlikni, balki strategik raqobat ustunligini ham ta’minlaydi.

Ushbu magistrlik dissertatsiyasi mavzusi dolzarbligi bilan ajralib turadi, chunki:

- birinchidan, tijorat banklari faoliyatining asosini tashkil etuvchi passivlar masalasi bank tizimining mustahkamligi va ishonchliligini belgilaydi;